

## VII. ISTE'MOL BOZORI CHAKANA SAVDO

### Tovar aylanmasi

2024- yilning yanvar-iyunida chakana tovar aylanmasi 10 364,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,6 foizni tashkil etdi.

### Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jami</b>	<b>10 364 ,0</b>	<b>107,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	9 864,4	107,8	86,6
undan fuqarolarning xususiy mulki	1 388,6	107,0	13,4












Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 10 364,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,6 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-iyun oylarida 5 925,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,9 foizga o'sdi.

### 2024- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	<b>10 364,0</b>	<b>107,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	3 049,6	109,3	29,4
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	5 925,8	106,9	57,2
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	1 388,6	107,0	13,4













## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>333,2</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>55,8 %</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>93,7</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>15,7 %</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>26,9</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>4,5 %</b>
<b>Tovuq go'shti</b> <b>40,0</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>6,7 %</b>	<b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>13,7</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>2,3 %</b>	<b>Tuxum</b> <b>14,9</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>2,5 %</b>
<b>Ziravorlar</b> <b>30,5</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>5,1 %</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>17,9</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>3,0 %</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>5,4</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,9 %</b>
<b>Tuzlamalar</b> <b>6,6</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>1,1 %</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>2,8</b> <b>mlrd. so'm</b>  <b>0,8</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>9,6</b> <b>mlrd. so'm</b> <b>1,6 %</b>

2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 597,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (333,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari


2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 791,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 546,9 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 208,2 mlrd. so'mni, otlar 32,4 mlrd. so'mni, parrandalar 4,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>350,6</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>44,3 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>152,0</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>19,2 %</p>	<p><b>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>44,3</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>5,6 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>122,7</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>15,5 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>32,4</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>4,1 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>85,5</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>10,8 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,8</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>3,2</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>0,4 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,0</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>0,0 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,0</b> <i>mlrd. so'm</i></p>  <p>0,0 %</p>	<div>   </div>	

AKT


## Ulgurji savdo tovar aylanmasi

### Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 911,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 330,9 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 84,9 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 2 580,5 mlrd. so'mni tashkil etib 111,2 % ga o'sdi.

### Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 285,6 mlrd. so'mni tashkil etib 2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 107,0 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 foiz bo'lib, 2 897,1 ming so'mni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10 364,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 107,6 foizga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 499,5 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 103,1 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 550,1 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 110,6 %), jismoniy shaxslarning tovar aylanmasi 5 926,0 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 106,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 388,6 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 107,0 %) tashkil etdi.

### Yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. soʻm)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo'lgan Qarshi shahar va (viloyat bo'yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi (20,4 %), Shahrisabz shahar (9,1 %), Koson (8,7 %) va Chiroqchi tumanlari (8,9 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 499,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,8 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 9 864,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,8 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,2 foizga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,**  
*(jamiga nisbatan foiz hisobida)*



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>499,5</b>	<b>103,1</b>	<b>9 864,5</b>	<b>107,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	245,1	89,4	1 866,5	111,3
Shahrisabz sh.	27,0	187,3	918,3	106,5
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	21,0	3,4 m.	433,7	106,9
Dehqonobod	3,6	111,2	355,0	105,3
Qamashi	7,3	96,3	764,8	106,0
Qarshi	5,7	77,2	410,4	108,2
Koson	52,7	122,4	847,7	107,4
Kitob	11,0	139,0	549,2	107,7
Mirishkor	2,9	95,8	375,3	106,1
Muborak	1,5	5,3	312,0	116,3
Nishon	3,3	89,3	426,3	108,3
Kasbi	3,9	26,5	458,7	108,0
Ko‘kdala	25,1	2,8 m.	345,8	105,4
Chiroqchi	20,8	78,7	900,7	107,3
Shahrisabz	62,1	2,1 m.	327,7	103,6
Yakkabog‘	6,6	98,2	572,3	105,4

2024- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘rish sur‘ati bo‘yicha Muborak tumani (116,3 %), Qarshi shahri (111,3 %), Nishon tumani (108,3 %), Qarshi tumani (108,2 %) va Kasbi tumanida (108,0 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,8 foizni tashkil etib, yirik korxonalarining eng katta ulushi Shshrisabz tumanida (15,9 %) Qarshi shahri (11,6 %), Koson (5,9 %) tumanlarida kuzatildi.